


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70720705 - Paxtani dastlabki ishlash va urug' tayyorlash texnologiyasi  
magistratura mutaxassisligining malaka talablari**

**Toshkent 2024**



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
202\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanishi .....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarning sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari .....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari .....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar .....</b>	6
3.	<b>Ilmiy faoliyatga qo‘yiladigan talablar.....</b>	8
4.	<b>Ilmiy amaliyotga (tajriba orttirish) qo‘yiladigan talablar.....</b>	8
5.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	9
	<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	10
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	11

## **1. Umumiy tavsifi**

70720705 - Paxtani dastlabki ishlash va urug‘ tayyorlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi 70720705 - Paxtani dastlabki ishlash va urug‘ tayyorlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv reja va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatni nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslari.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Tegishli mutaxassislik mavjud barcha ta‘lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarda ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy xavfsizlik faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlari va sohaslarini rivojlantirishda iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.**

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

paxtani dastlabki ishlash va urug‘ tayyorlash ishlab chiqarish korxonalarini;

texnologik jarayonlarni tadqiqot qilish va takomillashtirish, ulardan samarali foydalanish muassasalari;

paxta mahsulotlarni me’yoriy texnik hujjatlashtirish va tekshirish sifat markazlari;

ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog‘liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;

turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini;

ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog‘liq akademik, ilmiy tadqiqot tashkilotlari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:**

ilmiy-tadqiqot faoliyati;

pedagogik faoliyat;

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;

loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyati;

axborot-tahliliy faoliyat.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70720705 - Paxtani dastlabki ishlash va urug‘ tayyorlash texnologiyasi mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim.

#### **Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatda:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy natijalarni nashr etish;

ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmogida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:**

yangi mahsulot turlari bo'yicha meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish;  
mahsulot sifatini boshqarishda texnik hujjatlar va yangi tajriba usullarini joriy qilishni tashkillashtirish va nazorat etish;

loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish.

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, o'z ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligini talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbiy etika qoidalarigi rioya qilish.

**Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatda:**

to'qimachilik sanoatidagi paxta tozalash korxonalarini loyihasini ishlab chiqish; ishlab chiqarish korxonalarida loyihalash-texnologik ishlarini o'rganish, tahlil qilish, ishlab chiqish va qo'llash;

ishlab chiqarish korxonalarida urug'chilik markazlarini jarayonlarini tashkil qilish bo'yicha loyihalash-konstruktorlik va loyihalash-texnologik ishlarini to'liq bajarish ko'nikma va malakasiga ega bo'lish;

ilmiy-tadqiqot institutlari va tashkilotlarida ham ishlab chiqarish korxonalarida urug'chilik jarayonlarini loyihalash va tashkil qilish bo'yicha loyihalash-konstruktorlik ishlarini bajarish va ularni qo'llash tajribasiga ega bo'lish;

ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayonlarni tashkil qilish va boshqarishda hozirgi qo'yilgan talablar nuqtai nazaridan zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llab, ish faoliyatini tashkil qilish ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lishi.

**Axborot-tahliliy faoliyatda:**

ishlab chiqarish korxonalarida paxtani dastlabki ishlash va urug' tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqarishi faoliyatini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda meyoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

ishlab chiqarish korxonalarida paxtani dastlabki ishlash va urug' ishlab chiqarishi faoliyatini loyihalash sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

dastlabki ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha ishlar sifatini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarishi sohasidagi innovatsion texnologiyalarni tahlil qilish va mahalliy sanoat korxonalariga joriy qilish loyihalariga oid jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash.

## **2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.**

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon kilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

shaxsning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish;

yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon etish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat bilan yondashish;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida foydalana olish;

axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila olish;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish;  
ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;  
ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

chigitli paxtani quritish, tozalash, jinlash va linterlash jarayonlarini boshqarish, oddiy elementli ko'p parametrlilik matematik modellar, matematik modellarni texnikaviy obyekt holatiga va dinamikasiga ta'siri, matematik modellarni paxtani dastlabki ishlash texnologiyasidagi jarayonlarga ularning tadqiqot etish ko'nikmalariga ega bo'lishi

paxtani qabul qilish, g'aramlash, saqlash, quritish tozalash, jinlash, to'ldirish tozalash, namlash, toylash, chigitni linterlash, tozalash, momig'ini tozalash va toylash, to'ldirish chiqindilarni tozalash va toylash jarayonlaridagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, tajriba tadqiqotlarini o'tkazish, tajriba tadqiqotlari natijalarni qayta ishlash metodlarini qo'llash, tahlil qilish, xulosa va tavsiyalar berish ko'nikmalariga ega bo'lishi

ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ta'minlash, tola sifatini aniqlash, sifatni boshqarish uchun davlat va xalqaro standartlarni qo'llash, ishlab chiqarishni boshqarishda sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish va uning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash ko'nikmalariga ega bo'lishi

### **3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.**

**Ilmiy faoliyat** ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida paxtani dastlabki ishlash va urug' tayyorlash texnologiyasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

*Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo'lgan talablar:*

mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;  
axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

*Ilmiy pedagogik ishlar:*

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.



#### 4. Ilmiy amaliyotga (tajriba orttirish) qo'yiladigan talablar.

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

#### 5. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1260</b>	<b>42</b>	<b>1,2,3</b>
1.01	ITM1106	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	MFO'M1106	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	180	6	1
1.03	PTPM1206	Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat	180	6	2
1.04	ITNA1106	Ilmiy tadqiqotning nazariy asoslari	180	6	1
1.05	PSTIM1306	Paxta sanoati texnologiyasini ilmiy muammolari	180	6	3
1.06	MSB1206	Mahsulot sifatini boshqarish	180	6	2
1.07	UTTJL1206	Urug' tayyorlash texnologik jarayonlarini loyihalash	180	6	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>540</b>	<b>18</b>	<b>1,2,3</b>
<b>Kvalifikatsiya</b>		Muhandis-texnolog, pedagog-tadqiqotchi			
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1,2,3,4</b>
3.01		Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ish, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	1140	38	1,2,3,4
3.02		Ilmiy seminar	420	14	1,2,3
3.03		Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	240	8	4
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	<b>1,2,3,4</b>

## Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so‘zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o‘quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o‘qib-o‘rganish natijalari, o‘quv sikli, zamonaviy tadqiqot metodlari, paxta sanoati texnologiyasini ilmiy muammolari, mahsulot sifatini boshqarish axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellar, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o‘lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, paxta, urug‘lik chigit, texnologik jarayon, tadqiqot, tajriba, natija, namlik, ifloslik, nav, quritish, tozalash, jinlash, linterlash va toylash jarayoni, saralash, tuksizlantirish, dorilash, loyihalash, ta’mirlash, sozlash, qoziqchali baraban, arrachali baraban, arrali silindr, qistirma, kolosnik.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**



Rektor [Signature] akademik. S.M. Turabdjano

202\_\_ yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O.

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor [Signature] X.Kamilova



2024 yil « 13 » iyun

M.O.

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor [Signature] M.Boltabayev



2024 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O.

**Namangan to'qimachilik sanoati  
instituti**

Rektor [Signature] Q.Xoliqov



2024 yil « 13 » iyun

M.O.

**“Paxtasanoati ilmiy markazi” AJ  
Bosh direktorining ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo'yicha birinchi  
o'rinbosari**

[Signature] Q.Jumaniyazov



2024 yil « 14 » iyun

M.O.

**“TCT agro cluster” MCHJ direktori**

[Signature] SH.Karimov



2024 yil « 14 » iyun

M.O.